

“SAB’AI SAYYOR” DOSTONI POETIKASI VA KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI

Jo‘rayeva Dilovarxon Valijon qizi,
Qo‘qon davlat universiteti talabasi
dilovarxonjorayeva05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Sab’ayi sayyor” dostonida malikalar obrazi va ularni tasvirlashda yozuvchining badiiy so‘z qo‘llash mahorati tahlil qilinadi. Qasr makonida mujassam bo‘lgan ranglar tizimi, ularning hafta kunlari va homiy sayyoralar bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, har bir iqlimdan kelgan musofirlar tasviri orqali dostonning g‘oyaviy-badiiy mazmuni yoritiladi. Tadqiqot baytlar poetik tahlili asosida olib borilib, asardagi ramziy va estetik qatlamlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: “Sab’ai sayyor”, malikalar obrazi, qasr, musofirlar, sayyoralar, ranglar, shoh Bahrom, badiiy so‘z.

Аннотация. В статье анализируются образы царицы в дастане Алишера Навои «Саб’айи сайёр» и мастерство художественного слова в их изображении. Рассматривается дворцовое пространство, цветовая система дворцов, их связь с днями недели и покровительствующими планетами. Также анализируются образы странников, прибывших из разных климатических поясов, как важный элемент идейно-художественной структуры произведения. Исследование основано на поэтическом анализе бейтов.

Ключевые слова: «Саб’айи сайёр», образы царицы, дворец, странники, планеты, цвета, царь Бахрам, художественное слово.

Abstract. This article analyzes the images of queens in Alisher Navoi’s epic “Sab’a-yi Sayyār” and the author’s mastery of artistic language in portraying them. The study explores the palace space, the system of colors, their association with weekdays and patron planets. In addition, the depiction of travelers from different regions is examined as an integral part of the epic’s artistic structure. The research is based on a poetic analysis of selected verses, revealing the symbolic and aesthetic layers of the work.

Keywords: Sab’a-yi Sayyār, images of queens, palace, travelers, planets, colors, King Bahram, artistic language.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyoti Sharq badiiy tafakkurining eng yuksak cho‘qqilaridan biri sifatida insoniyat ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Bu adabiyotning eng yirik vakillaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy o‘zining boy ijodiy merosi bilan nafaqat turkiy adabiyot, balki jahon adabiyoti rivojiga ham ulkan hissa qo‘shgan. Uning “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlaridan biri Sab’ayi sayyor kompozitsion mukammalligi, ramziy obrazlar tizimi va chuqur falsafiy mazmuni bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

“Sab’ai sayyor” dostoni Sharq mumtoz epik an‘analariga tayangan holda yaratilgan bo‘lib, unda syujetning murakkab tuzilishi, hikoya ichida hikoya usuli hamda ramziy-estetik qatlamlarning uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda yetti qasr, yetti rang, yetti kun va yetti sayyora o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali kosmik tartib va inson hayoti o‘rtasidagi falsafiy munosabatlar badiiy ifoda etilgan. Bu esa asarning nafaqat epik, balki ramziy-falsafiy yo‘nalishda ham yuksak darajada shakllanganini ko‘rsatadi.

Dostonda shoh Bahrom obrazi markaziy o‘rin tutib, uning atrofida kechadigan voqealar orqali adolat, insoniylik, ma’naviy kamolot va taqdir masalalari yoritiladi. Har bir qasr va unga bog‘liq hikoyat mustaqil syujet sifatida ko‘rinsa-da, ular umumiy g‘oyaviy-badiiy tizimga bo‘ysundirilgan holda asarning yaxlit kompozitsiyasini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot ishini yoritishda Alisher Navoiy ijodiga oid ilmiy-nazariy manbalar, mumtoz poetika va aruz ilmi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda “Xamsa” tarkibidagi dostonlar yuzasidan yaratilgan ilmiy izlanishlar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Sab‘ayi sayyorning badiiy tuzilishi, ramziy tizimi va kompozitsion xususiyatlari bir qator navoiyshunos olimlar tomonidan turli jihatdan o‘rganilgan.

Avvalo, Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova va O.Davlatov tomonidan yaratilgan “Navoiyshunoslik” asarida Navoiy ijodining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, xususan “Xamsa” dostonlarining kompozitsion qurilishi keng yoritilgan bo‘lib, unda “Sab‘ai sayyor”ning yetti qasrga asoslangan strukturasi ramziy mohiyati haqida muhim ilmiy mulohazalar bildiriladi. Ushbu manbada Navoiy ijodida kosmik ramzlar va inson taqdiri o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi ham tahlil qilinadi [1, 132–145-b].

Shuningdek, Sh.Sirojiddinov ning alohida monografiyasida Navoiy ijodiy metodining shakllanishi, Sharq epik an‘analariga munosabati hamda “Sab‘ai sayyor”dagi hikoya ichida hikoya usulining funksional ahamiyati haqida ilmiy xulosalar berilgan. Bu asarda Bahrom obrazi orqali adolat va ruhiy kamolot masalalarining badiiy talqini chuqur ochib beriladi [2, 78–96-b].

Navoiy matnining asl manbasi sifatida “Sab‘ai sayyor” dostoni (1991-yil nashri) asosiy birlamchi manba hisoblanadi. Ushbu nashrda dostonning to‘liq matni, baytlar tizimi va hikoyatlar ketma-ketligi ilmiy izohlar bilan berilgan bo‘lib, qasrlar tizimi, ranglar ramzi hamda sayyora bilan bog‘liq poetik strukturani o‘rganishda muhim ahamiyatga ega [3, 414–520-b].

Y.Is‘hoqovning “Navoiy poetikasi” asari esa aruz tizimi, badiiy san‘atlar va poetik ifoda vositalarining ilmiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “Sab‘ai sayyor”dagi tashbeh, istiora, tanosub va husni ta‘lil kabi san‘atlarning qo‘llanishi ilmiy asosda izohlangan [6, 201–219-b].

Tahlil qilingan adabiyotlar “Sab‘ai sayyor” dostonining kompozitsion mukammalligi, ramziy tizimi va poetik xususiyatlarini yoritishda kompleks ilmiy asos yaratadi. Mazkur manbalar asosida olib borilgan tadqiqot dostonning badiiy-falsafiy qatlamlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiyning Sab‘ayi sayyor dostonini tahlil qilishda kompleks filologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini matnni yaxlit badiiy tizim sifatida o‘rganish, ya‘ni strukturaviy va semantik tahlil tashkil etadi. Bundan tashqari, asardagi poetik qatlamlarni ochib berish maqsadida komponent tahlil, kontekstual tahlil hamda qiyosiy-adabiy metodlardan foydalanildi.

Qasrlar, ranglar, sayyoralar va hikoyatlar tizimi ramziy birlik sifatida ko'rib chiqilib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. Shuningdek, doston matni bevosita baytma-bayt tahlil qilinib, undagi tashbeh, istiora, tanosub va husni ta'lil kabi badiiy san'atlar aniqlash orqali poetik xususiyatlar yoritildi. Tarixiy-adabiy yondashuv esa asarning Sharq epik an'analari bilan aloqasini ko'rsatishda muhim rol o'ynadi. Metodologik yondashuvlar majmuasi asarning kompozitsion tuzilishi va badiiy-falsafiy mazmunini chuqur ilmiy tahlil qilishga imkon berdi.

Muhokama va natija. Alisher Navoiy qalamiga mansub "Sab'ai sayyor" dostoni sharq mumtoz adabiyotida murakkab va puxta o'ylangan kompozitsion tuzilmaga ega asarlardan biridir. Doston kompozitsiyasi voqealar izchilligi, ramziy qatlamlarning uyg'unligi hamda syujet va g'oyaning o'zaro mutanosibligi asosida shakllantirilgan.

Doston 38 bob, 5009 baytdan iborat bo'lib, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi. Doston xafif bahrining *xafifi musaddasi maxbuni mahzuf* (ruklari va taqti'i: foilotun mafoilun failun - V ---/ V - V - /V V -) vaznida yozilgan.[1. 148].

Asarning muqaddima qismida an'anaviy tarzda hamd-u sano, na't va shoirning niyyat bayoni bilan boshlanadi. Muqaddimadan so'ng voqealar markaziga shoh Bahrom obrazi olib kiriladi, uning hayoti va ruhiy olami asar kompozitsiyasida asosiy o'rinni egallaydi.

Dostonning asosiy qismi etti qasr va etti sayyora tamoyiliga qurilgan Har bir qasr muayyan rang, sayyora va hikoya bilan uyg'unlashib, mustaqil syujetga ega. Doston kompozitsiyasida hikoya ichida hikoya usuli markaziy o'rin egallaydi.

"Sab'ai sayyor" dostonida qasrlar ranglari, boblar va ularga oid hikoyatlar nomlarini jadval shaklida jamladik. Bu jadval har bir bobning muayyan rang bilan bog'liqligini va hikoyatlar ketma-ketligini aniq ko'rsatib, asarning kompozitsion tuzilishini tartibli tizim sifatida yoritishga xizmat qiladi.

T/r	Qasrlar tasviri berilgan boblar	Kunlar	Qasr ranglari	Qasrlarga homiy bo'lgan planetalar	Hikoyatlar keltirilgan boblar	Hikoyatlar
1	20	Shanba	Qora	Zuhul (Saturn)	21	Farruh va Axiy haqidagi hikoyat
2	22	Yakshanba	Sariq	Quyosh	23	Zayd Zahhob haqidagi hikoyat
3	24	Dushanba	Yashil	Oy	25	Sa'd haqidagi hikoyat
4	26	Seshanba	Gulgun	Mirrix (Mars)	27	Mas'ud haqida hikoyat
5	28	Chorshanba	Moviy	Utorud (Merkuriy)	29	Mehr va suhayl haqidagi hikoyat
6	30	Payshanba	Jigarrang	Mushtariy (Yupiter)	31	Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyat
7	32	Juma	Oq	Zuhra (Venera)	33	Xoja va Dilorom haqidagi hikoyat

ASARDA KELTIRILGAN MALIKALAR TASVIRI

1-qasr

Qasri mushkinga qo'ydi yuz Bahrom,
Ichgali mushkbo' g'azol ila jom.

Lu'bat hindzodu chiniyvas,
La'li jonbaxshu sunbuli dilkash.

Hullasin oydek aylabon shabgun,
Durlar ul hulla uzra kavkabgun.

Taxtu raxtini aylabon mushkin,
Mushk uza er tutub g'azolai Chin.

Tutubon uyni mushkdin zulmot,
Mahvash ul zulmat ichra obi hayot.[9. 104]

Shanba kuni Baxrom, odu bilan muattar may ichish uchun qora qasrga qarab yo'l oldi. U erda lablari jon bag'ishlaydigan, sumbullari dilrabo, Chin go'zallariga o'xshagan hind zod kelin bor edi. U oy singari go'zal, kechadek qora liboslarga burkangan bo'lib, u hulla nozik-nafis kiyimlarga qadalgan gavharlar xuddi yulduzlardek tovlanar edi. Uning taxtiravoni va ko'rpa-to'shaklari ham qora tusda bo'lib, bu Chin go'zali mushk ustida o'tirar edi. Bu uyni butunlay qora mushkin zulmat bosgan bo'lib, u mahvash qorong'ilik ichidagi obi hayotni eslatar edi.[3. 414]

Keltirilgan baytlarda Mushk (mushk, hulla) va la'l va sunbul — **istiora**, oy va kavkab (oydek, kavkabgun) — **tashbeh**, kabi badiiy san'atlar qo'llangan.

2-qasr

Chunki yakshanba urdi mehr alam,
Kiydi zarbaft hulla ko'k toram.

Ko'k arusi to'nin qilib zarkash,
Chiqti andoqki gulruxi mahvash.

Jilva qildi nigori rumiychehr.
Sarig' oltun aro nechukkim mehr.

Mohi rumiy najod ayladi fosh
Pardag'a kirmagin nechukki quyosh[9. 135]

Yakshanba kuni, quyosh o'z bayrog'ini ko'tarishi bilan ko'k gumbazi zarbaft hulla kiydi. Ko'k kelini zarhal libosga burkanib, xuddi gulrux mahvashning o'zi bo'ldi. Rum

chexrali nigor, xuddi quyosh singari, oltin rang liboslar ichida jilvalanib turardi. Nihoyat, kech kirib, kunduz sariq to'nini qora qildi, kun oltin rangini siyoda bo'yadi. Rum zotli moh, quyosh pardaga kirganda oy o'zini ko'rsatgani kabi, yuzini ko'rsatdi.[3.432]

Ushbu baytlarda yakshanba kunida sariq rangli qasrdagi malika tasvirlanadi. **“Kiydi zarbaft hulla ko'k toram”** — libosni odam kabi “kiydi”. Ushbu baytda **Tashxis-**(jonlantirish) badiiy san'ati qo'llangan. **Oy va Quyosh** so'zlari **tanosub** san'atini yuzaga keltiradi.

3-qasr

Jilvagar bo'ldi sarvi sabzorang,
Aylabon xil'atini mino rang.

O'zi sabzu tabassumi shakarini,
Xushturur sabz gar erur shirin.

Noz birla nigori yag'moyi,
Shohg'a tutti jomi minoyi.[9.153]

Dushanba kuni sabza rang sarvqomat jilva bilan ko'rindi. Uning xil'ati esa, havo rang edi. Uning o'zi sabzaga, tabassumi esa, shakarga o'xshash shirin edi, axir, sabza shirin ekan, yokimli bo'lmaydimi? Kishini maftun etuvchi bu go'zal nigor, shu onda shohga shisha rang jomda may tutdi.[3.444]

Ushbu baytlarda shoir

**“O'zi sabzu tabassumi shakarini,
Xushturur sabz gar erur shirin”**

sabz rang va shirin tabassum go'zallikning tabiiy sababini ochib beradi, bu esa **Husni ta'lil** badiiy san'atiga misol bo'ladi.

4-qasr

Sarvi gulchehr qildi istiqbol,
Gul kibi borcha raxti hullai ol.

Shoh ila qildi no'sh gulgun mul
Mul alar chehrasin qilib gul-gul.

Anga tegruki mehri gulruxsor,
Yuziga yopti pardai ko'hsor.[9.180]

Sarv gulchehra shohning istiqboliga chiqarkan, uning barcha liboslari gul kabi qizil ipaklikdan edi. U gulrang taxtga o'tirib, la'l rang jomga gulfom boda quydi. U, shoh bilan gulgun may no'sh qilarkan, may ularning chehrasini gul-gul ochiltirib yubordi.[3.461]

Ushbu baytlarda shoir **“Sarvi gulchehr”** va **“mehri gulruxsor”** birikmalari orqali **Istiora** san'atini, **“Gul kibi”** birikmasi orqali **tashbeh** san'atini yorqin asoslab bergan.

5-qasr

Nilufardek liboslar bila oy
Bo'ldi xursheddek jahonoroy.

Uylakim, ko'z yurutqali jovid,
Chiqti ko'k atlasin kiyib xurshed.[9.211]

Nilufar rang liboslar kiygan oy yuzli go'zal xuddi xurshiddek namoyon bo'larkan,
ko'zlarni abadiy yoritish uchun quyosh ko'k atlasini kiyib chiqqandek bo'ldi.[3.479]

Ko'k atlasin kiyib xurshed chiqti — quyoshning “atlas kiyib chiqishi”**tashhis.**

6-qasr

Jilvagar bo'ldi sarvi sandal bo'.
Sakdaligun libosi to'-barto'.

Hulla sandal nasimi turfa sijof,
Sar-basar davrasida sandal bof.[9.235]

Sandal bo'yli sarvqomat go'zal ham qatma-qat sandalgun libos bilan hozir bo'ldi.
Uning sandal tusli kiyimlaridan teva-rak-atrofga ajoyib sandal hidi taralar edi.[3.493]

Ushbu baytda “**sarvi sandal bo'**” birikmasi orqali **istiora** san'ati yuzaga kelgan.

7-qasr

Hulla birla harprinp buti Chin,
Berib erdi bu rang ila oyin.

Taxti oj uzra shah chu tutti maqom,
Sho'x ham topti yonida orom.[9.257]

Chin go'zali ham ipak xullasini oq rang bilan bezagan edi. Shoh oq taxt ustiga chiqib
o'tirgach, sho'x ham uning yonidan joy oldi.[3.479]

Ushbu baytda **taxt, shoh, maqom** so'zlari orqali **tanosub** san'ati yuzaga kelgan.

Rivoyatchilar. “Sab'ai sayyor” dostonida etti iqlimdan kelgan musofirlar shoh Bahrom huzurida hikoyat aytadi va har bir rivoyat munosib e'tirof bilan yakunlanadi. Hikoya so'ngida shoh Bahrom rivoyatchilarni mansab, in'om yoki tuhfa bilan siylaydi. Quyida ushbu holatlarning asarda berilgan tasvirlarini ko'rib chiqamiz.

1-iqlimdan kelgan musofir. Farruh va Axiy haqidagi hikoyat. “Ey donishmand nuktago'y, sen kimsan, qaysi diyordansan va kimning nasli nasabidansan? Ayt!” - dedi.

Rivoyat qiluvchi roviy:

“Vatanim Hindistondir. Axiyning yaqin avlodi bo'lurman. Bu erga ko'ngil istagi va nafs balosi olib keldi, shohga xizmat qilish niyatidadurman”, dedi.

Shox uni faqirlik va muhtojlikdan xalos aylab, saroyda o'ziga yaqin do'st va ulfat qilib oldi.[3.433]

2-iqlimdan kelgan musofir. Zayd Zahhob haqidagi hikoyat. “Ey, shirinsuxan musofir, sen bu sahifalarni sharhlab berding, endi o‘zingning kimliging haqida ham gapirib ber, barcha hol-ahvolingdan bizni xabardor ayla, zero, sening muborak nafasing bizga zo‘r ta‘sir ko‘rsatdi”, dedi.

U aytdiki: «Vatanim Rum mamlakatida bo‘lib, tabiblik va hakimlik ilmi mening kasb-hunarimdir. Men sizga gapirganim muhandis (injener) esa bobolarimning avlodidir. Bu tomonlarga qadam ranjida qilishdan maqsadim, senga bir kamina-kamtarin xizmatchi bo‘lish edi. Shukur lillohki, nimani orzu qilgan bo‘lsam, soyayi davlatingda murodinga etdim».

Shox Bahrom uning bu tamannosini eshitarkan, orzusini kondirib, uni ham o‘ziga nadim do‘st qilib oldi.[3.444]

3- iqlimdan kelgan musofir. Sa‘d haqidagi hikoyat. Nihoyat, roviy qissasini shu erga etkazgach, Baxrom: «Ey mahoratli musofir, asli zoting kimligini bayon ayla!» dedi.

Roviy aytdiki: «Ey, baland taxt egasi, men Shahrisabz xalqining farzandiman va Sa‘dning avlodidan bo‘la-man».

Uning kimligi ayon bo‘lgach, shoh uni Shahrisabzga voliy hokim qilib tayinladi. Musofirni qayg‘udan ozod qildi, o‘zi ham osuda uyquga ketdi.[3.445]

4- iqlimdan kelgan musofir. Mas‘ud haqidagi hikoyat. Rivoyat qiluvchi roviy bu daqiqa nozik hikoyani so‘zlarkan, uni shoh hayajon bilan eshitdi. Bu roviyning o‘zi ham Taroz o‘lkasidan, Mas‘udning gavhari naslidan edi. Bahrom u musofirni o‘ziga hamdam va hamroz etdi, to‘g‘rirog‘i, Taroz kishvariga uni hokim qilib tayinladi.[3.450]

5- iqlimdan kelgan musofir. Mehr va Suhayl haqidagi hikoyat. Musofir o‘z afsonasini tugatarkan, parda soxibi ham o‘zining moviy pardasini ko‘tardi. Shox Baxrom, lutf marxamat aylab, musofirni ehson yomg‘iri bilan ko‘kartirdi. U, roviyning xizmati uchun kutilgandan ortiq haq bergach, ko‘ziga uyqu osoyishtalik bag‘ishladi[3.492]

6- iqlimdan kelgan musofir. Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyat. Sandal ruhga osoyishtalik, uning atr hidi esa, jonga hayot bag‘ishlashini yaxshi bilingiz. Sandal isiga tek turib bo‘lmaydi, mushk borligini ham hech kim yashirolmaydi, zero bu, ikkisi o‘z muattar hidi bilan har erda bilinib turadi.

Dono musofir bu go‘zal hikoyani aytib tugatarkan, shoh Baxrom ham sandal hidi bilan mast bo‘lgan holda uxlab qoldi.[3.505]

7- iqlimdan kelgan musofir. Xoja va Dilorom haqidagi hikoyat. Xojani shoh o‘ziga xos vazir qilib oldi, u ham savdogarchilik kasbidan qutuldi. Boshqalar esa o‘z tirikchiliklaridan qolmaslik uchun shaharga qarab ravona bo‘ldilar.[3.518]

Xulosa. “Sab‘ai sayyor” dostonini o‘rganish davomida asarning kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi va poetik xususiyatlari tahlil qilindi. Yetti iqlimdan kelgan musofirlar hikoya aytadi va shoh Bahrom ularni mukofotlaydi, Qasrlar ranglari, boblar va hikoyatlar nomlarini jamlab tahlil qilinadi. Malikalar va rivoyatchilar tasviri esa dostonning poetik-estetik kuchini oshiradi. Shu sababli, “Sab‘ai sayyor” Navoiyning

badiiy tafakkuri, hikoya san'ati va falsafiy fikrlarini uyg'un tarzda ifoda etgan yirik asar sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018. – 320 b.
2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. – T.: Akademnashr, 2011. – 280 b.
3. Sab'ayi sayyor. – T.: G'afur G'ulom, 1991. – 520 b.
4. Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari. – T., 2023. – 240 b.
5. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. – T.: G'afur G'ulom, 1972. – 400 b.
6. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T.: Fan, 1998. – 312 b.
7. Xamsa. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 600 b.
8. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Malik Print Co, 2021. – 260 b.
9. <https://www.ziyouz.com/>
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sab%CA%BCai_sayyor
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/alisher-navoiyning-sab-ai-sayyor-dostonida-do-st-timsolining-yaratilishi>

